



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 11-mart, № 49 (8944)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN FRANSIYAGA BORADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan 11 – 13-mart kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Tashrif doirasida Parij shahrida oliy darajadagi muzokara va tadbirlar, Fransiyaning rasmiy va ishbilanmon doiralari bilan qator uchrashuvlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Bo'lajak muloqotlar kun tartibidan ko'p qirrali O'zbekiston – Fransiya munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari o'rin olgan.

Savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyaning yetakchi kompaniya va korxonalar bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor e'tibor qaratiladi.

Sammit yakunida hukumatlararo va idoralararo bitimlar to'plamini qabul qilish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari

YUNESKO Bosh direktori Odri Azule bilan uchrashib, tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni joriy yilning kuzida Samarqand shahrida o'tkazishning amaliy jihatlarini muhokama qiladi.

Bo'lajak tashrif arafasida ko'plab tadbirlar o'tkazilayotganini ta'kidlash joiz.

Xususan, 1-mart kuni Grets-Armenvil shahridagi "Uranoskop" observatoriyasi hududida buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy siymosi aks etgan yodgorlik ochildi.

Shu kunlarda Parij shahrida sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, madaniyat, turizm va biznes sohalarda forum va anjumanlar o'tkazilmoqda. Tuluza, Lion va Nissada qo'shma ishbilanmonlik tadbirlari bo'lib o'tadi.

O'ZA.

Uy-ro'zg'or ishlari va farzand tarbiyasidan ortib, ta'lim olayotgan, mehnat qilayotgan va tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar zamonamizning haqiqiy qahramonlari, desak, to'g'ri bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

YANGI O'ZBEKISTONNING BUNYODKOR AYOLLARI



Ayol – jamiyat oynasi, millat tarbiyachisi. Uning mehr-muhabbati, tarbiyasi ertamiz egalarining jonajon Vatanimiz ravnaqi va osoyishtaligi, xalqimiz farovonligi yo'lida sadoqat bilan xizmat qiladigan barkamol insonlar sifatida voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi. Shu ma'noda, ko'p millatli yurtimizda 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami keng nishonlandi. Bu yilgi qutlug' bayramning muborak Ramazon oyida bo'lib o'tgani esa uning ezgu ruhi hamda mazmunini yanada oshirdi. Aytish joizki, ushbu ayyom munosabati bilan Prezidentimizning shu yil

3-martdagi qaroriga binoan 28 nafar qiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan, 4-martdagi Farmonga muvofiq esa mehnat faoliyati hamda jamoat ishlarida katta natijalarga erishgan bir guruh ayollar orden va medallar bilan taqdirlandi.

Ana shunday yuksak mukofotlarga sazovor bo'lgan xotin-qizlar bugungi islohotlar, jumladan, yurtimizda ayollarga munosabat va yuksak e'tibor haqida o'z fikr-mulohazalarini bayon qildi.

2-sahifaga qarang.

2025-yil davomida:

- ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha 4 bosqichli yangi tizim yo'lga qo'yiladi;
- "ayollar daftari"ga kiritilganlarning har biri bilan manzilli ishlab, nogironligi bo'lgan 162 ming nafar ayolga sanatoriy, shifoxona va o'zlari yashayotgan mahallada tibbiy yordam ko'rsatiladi;
- boquvchisini yo'qotgan 130 ming nafar xotin-qizga moddiy yordam beriladi, yana 6 ming nafar ayolning uy-joy sharoitlari yaxshilanadi;
- 1,5 million nafar xotin-qizda saraton kasalligini erta aniqlash maqsadida skrininglar o'tkaziladi;
- mahallalardagi 4 million xotin-qiz ommaviy sport musobaqalariga jalb qilinadi;
- 250 ming nafar qiz oliy ta'limga qamrab olinadi;
- og'ir sharoitli oilalardagi iqtidorli yoshlarni xorijda o'qitish bo'yicha "Yorqin kelajak" loyihasi tatbiq etiladi;
- 2 million nafar ayolning bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Aks sado

HAR BIR FUQARO ZIMMASIDAGI BURCH

So'nggi yillarda yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash faoliyatini kuchaytirish, parlament palatalarida tegishli qo'mitalar tashkil etish orqali nazorat mexanizmlari takomillashtirildi.

Davlatimiz rahbari korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda ham korrupsiyaga qarshi kurash masalasini davlat taraqqiyoti va jamiyat barqarorligi uchun eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilab, bu borada qat'iy chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

Yig'ilishda korrupsiyaning raqamli ko'rinishlariga qarshi kurashishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurligi alohida ta'kidlandi. Sir emaski, bugungi raqamli asrda korrupsiyaning

yangi, murakkab shakllari, jumladan, kiberkorrupsiya keng tarqalmoqda. Bu esa nafaqat davlat boshqaruvi va biznes muhiti, balki jamiyatning huquqiy madaniyati uchun ham jiddiy tahdid tug'diradi. Shu maqsadda, yangi o'quv yilidan Ichki ishlar va Huquqni muhofaza qilish akademiyalarida kiberkorrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Ayni chog'da Senat tomonidan kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish masalasi ko'rib chiqiladi.

3

Senat qo'mitasida

E'TIBORDAGI MASALALAR QAMROVI KENG

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi tomonidan o'tgan uch oy davomida o'tkazilgan 7 ta majlisda 12 ta masala ko'rib chiqildi.

Jumladan, qonun ijodkorligi faoliyati yo'nalishida qo'mita tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi, "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi hamda "Donorlik harakatini qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunlar ko'rib chiqildi va yalpi majlislarda senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Qonunchilik tashabbusi doirasida qo'mita ishchi guruhi tomonidan "Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilmoqda.

Nazorat-tahlil faoliyati yo'nalishida qo'mita tomonidan 4 ta masala o'rganildi. Xususan, palma yog'i va uning tarkibidan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanishni kamaytirish to'g'risidagi masala mas'ul vazirlik va idoralar vakillari, mutaxassis va ekspertlar ishtirokida o'rganib chiqilib, tegishli takliflar tayyorlandi.

Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi bilan hamkorlikda "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosi holati o'rganildi. Bu jarayonda aniqlangan holatlar muhokama etilib, tegishli topshiriqlarni o'z ichiga olgan qo'mitalarning qo'shma qarori qabul qilindi.

3

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

JAMOATCHILIK NAZORATI INSTITUTLARI FAOLIYATI YANADA TAKOMILLASHADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi kiritildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish natijalari bo'yicha tayyorlangan yakuniy hujjatni ko'rib chiqmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanyapti.

Shuningdek, NNT faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida nodavlat notijorat tashkilotlari, ularning vakolatxonalarini va filiallarining davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyatni amalga oshirish, belgilangan tartibda ro'yxatdan

o'tkazilmagan ramziy belgilarni ishlatish, tadbirlar o'tkazish haqida xabardor qilish tartibiga rioya etmaslik, o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni taqdim qilish tartibini va muddatini buzish uchun jarima miqdorlari kamaytirilmoqda.

Qonun loyihasida "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan olingan pul mablag'lari va mol-mulkdan foydalanish to'g'risidagi axborotni o'z rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilib borish bo'yicha qoida o'z aksini topmoqda.

3

HALOLLIKNING HIDOYATI IBRAT ERUR

Da'vat

Eng avvalo o'tinchim shu – uyg'onaylik, Pok tilaklar shukuhiga chulg'unaylik, Haqiqatning o'chog'ida cho'g'lanaylik, Qaysi dilda insof ustun, or ustundir, Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

O'zga haqi o'z g'azaga hech vafo qilmas, Kim kafildir u bolangga jafu qilmas, Sir bormikin, bu dunyoda Xudo bilmas, Xiyonat, bu – himoyasiz bir tutundir, Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Olamdagi tiniq ko'zgu – xalq ko'zgu, Unda hatto ko'ringaydir dil tuyg'usi, Haqdan qo'rqib, kim xalqidan uyalgusi, Gunoh qilmas, mayli ochdir yo yupundir, Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Korrupsiya la'natlangan illat erur, Halollikning hidoyati ibrat erur,

El duosi ellar aro hikmat erur, Duo olgan qalb xotirjam, yuz gulgundir, Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Milliy kengash – millat qadri qalqonidir, Kengashmoqlik – odillikning imkonidir, Kengash tutmoq – Amir Temur farmonidir, Har muammo ko'ngil ichra bir tugundir, Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Olma pishib og'zimizga o'zi tushmas, Bir qanotda axir, hatto chivin uchmas, Bugun bizga birlik kerak, boshqa ishmas, Xalq birlashsa, Cho'lpon aytgan – "xalq to'liqdir" Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Haromxo'rlar ochib qo'rgan tuynuklar bor, El-yurt mulkin "tuya qilmoq" ularga kor, Bilmaydilar ozor yo'lin yoni mozor, Buyurmasa oltin – toshdir, pul – kukundir, Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Yaqin tarix o'zbek uchun xorlik ming bad, Ne azoblar, ne kazzoblar ko'rdi millat, Qotillarni urgay, albat, tavqi la'nat! U o'tmishga boqsang hamon dil zabundir, Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Korrupsiya, – ta'kidladi el sultoni, – Bu jamiyat tanasining saratoni. Bo'lsa agar odamzodning pok iymoni, Bilsin, do'zax oloviga shu uchqundir, Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Qaysi elda mezbon odil – yayrar qo'noq, Qaysi yurtida taraqqiyot – poklik chiroq, O'zbek shunday, bor dunyoga ochar quchoq, Bukun yangi O'zbekiston bir yolgindir, Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Mahmud TOIR,
Oliy Majlis Senati a'zosi,
O'zbekiston xalq shoiri.

QURILISH MAYDONLARIDA HAVO MUSAFFOLIGI TALABLARIGA RIOYA QILINADI

Yurtimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirlarning oldini olish, sanitariya va ekologik holat sifatini yaxshilash uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Fikr

Biroq shunga qaramay shahar hududlarida chang ko'tarilishi holatlari tez-tez uchrab, havo tarkibida mayda dispers zarrachalari belgilangan me'yordan yuqori ekanligi fuqarolarning turmush tarzi, hayoti va sog'lig'ida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holatlarning yuzaga kelishiga qurilish maydonlaridan chang va qum zarrachalarining

shamol orqali havoga ko'tarilishi ham sabab bo'lmoqda. Tahlillarga ko'ra so'nggi uch yilda qurilish obyektlari soni 3 barobar oshgan bo'lib, agar hech qanday profilaktik choralar ko'rilmasa, 500 kv. metrlik ochiq qurilish maydonidan yiliga o'rtacha 20 – 50 tonnagacha chang va qum zarrachalari havoga ko'tarilishi mumkin. Ushbu vaziyat bevosita atrof-muhit holatining yomonlashishiga sabab bo'ladi.

3

YANGI O'ZBEKISTONNING BUNYODKOR AYOLLARI



X. ПАЙДОВ отточ. сырттоп.

Ishonchni fidokorona mehnatim bilan oqlayman

Gulzar MAMBETNIYAZOVA,

Chimboy tumani hokimining o'rinbosari – oila va va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i, "Do'stlik" ordeni sohibasi:

– Keyingi yillarda Prezidentimiz boshchiligidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi har tomonlama rivojlanmoqda. Birgina Chimboy tumanida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, o'zgarishlar buning yaqqol misoli. Xususan, ehtiyojmand ayollarni moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab, ularning oilada va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, bandligini ta'minlashga ko'maklashish, liderlik qobiliyatini yuzaga chiqarish borasida samarali ishlar amalga oshirilayotir. Bu kabi sa'y-harakatlarda tumanimiz xotin-qizlari ham faollik ko'rsatib kelayotir. Ayollarning baxtli, bugunidan rozi bo'lib yashashini ta'minlash kundalik vazifamizga aylangan.

Bu haqda gap ketganda, davlatimiz rahbarining agar ayol baxtli bo'lsa, oila baxtli bo'ladi, oila baxtli bo'lsa, butun jamiyat, davlat mustahkam va barqaror bo'ladi, degan ta'kidini bot-bot takrorlagim keladi. Mahallalarda ayollarning sharoitini yaxshilash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda ham jamoamiz ushbu o'g'itlarni faoliyatimizning asosiy mezonini qilib olgan. Kamtarona mehnatimni yuqori baholab, Prezidentimiz Farmoni bilan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlanganimdan boshim osmonga yetdi. Bu butun chimboylik xotin-qizlarga bo'lgan yuksak e'tibor, deb bilamiz va bildirilgan ishonchni o'zimizning amaliy mehnatimiz bilan oqlaymiz.

Kamtarona xizmatimiz yuzaga chiqdi

Maviuda SALIHOVA,

Buxoro viloyatidagi "Oydin Nur" oilani ijtimoiy himoyalash markazi eksperti, "Do'stlik" ordeni sohibasi:

– Faoliyatimizni 1999-yilda boshlaganimiz. Turli xalqaro tashkilotlar, shuningdek, savobtalab insonlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, muhofazaga muhtoj, oilaviy zo'ravonlik, odam savdosi qurboni bo'lgan, jabrdiyda mehnat muhojirlari yoki ilgari sudlangan, yakka-yolg'iz ayollar hamda voyaga yetmagan, ota-onasiz bolalarga bepul xizmat ko'rsatilmoqda. Ularni vaqtinchalik yashash joyi, ya'ni boshpana bilan ham ta'minlaymiz.

Shu paytga qadar 1 ming 300 dan ziyod ayollar va ularning voyaga

yetmagan farzandlari bu xizmatdan foydalandi. Sudlarda advokatlar orqali salkam 300 nafar ayolning buzilgan haq-huquqlari tiklandi. Inqiroz holatiga tushib qolganlarga psixologik xizmat ham ko'rsatyapmiz. 250 nafardan ziyod ehtiyojmand, zo'ravonlikka uchragan ayollar turli o'quv kurslarida o'qitilib, kasb-hunar egasiga aylandi.

Bu yilgi bayram arafasida "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan faol xotin-qizlar qatorida ekanligimdan boshim ko'kka yetdi. Yurtboshimizning bizga bildirgan ishonchini oqlash yo'lida kuch-g'ayratimizni ayamaymiz.

Xonadonlarimizga qut-baraka keldi

Gulchehra QARSHIBOYEVA,

Boyovut tumanidagi "Bolg'ali Qilich aka" fermer xo'jaligi rahbari, "Shuhrat" medali sohibasi:

– Ona-zaminimizning saxovati cheksiz. Bugungi kunda xo'jaligimizning 88 gektar ekin maydoni bo'lsa, ana shu mo'l hosil manbai bo'lmish zamin 32 nafar mahalladoshimning doimiy ish joyi ham hisoblanadi. Mavsumiy ishlarda ishchilarimiz soni yanada ortadi.

E'tiborlisi, yerni e'zozlagan, unga mehr berib yuqori hosil olgan dehqon borki, xalqimiz va davlatimiz tomonidan munosib qadrlanib kelinadi. Ayni yuksak e'tibor va e'zozga sazovor bo'lganlar qatoridagimdan mamnunman. Ikki yil avval "Ishbilarmon ayol" tanlovi g'olibi

bo'lgandim, bu yil esa 8-mart arafasida "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Bundan nafaqat mening, balki jamoamiz a'zolarining ham boshi ko'kka yetdi.

Darvoqe, fermer xo'jaligimda keyingi uch yil davomida paxta hosildorligi 25 – 30 sentnerdan 32 – 40 sentnerga ko'tarildi. Daromadimiz hisobidan ikkita traktor, uchta tirkama, "BYD" rusumli elektromobil va bir qator qishloq xo'jaligi texnikalari xarid qilidik. G'alladan ham mo'l hosil olyapmiz. Xullas, xalqimizning "Sen yerni boqsang, yer seni boqadi" degan naqligiga amal qilib kam bo'lmayapmiz.

Ma'rifatli oila jamiyatning baxti va farog'ati

Maryamxon YO'LDOSHEVA,

Qo'shtepa tumani hokimining o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i, "Shuhrat" medali sohibasi:

– Qariyb 40 yil ta'lim, ma'naviyat sohasida mehnat qilib, elu yurt hurmatiga sazovor bo'ldim. Ikki yildirki, ushbu mas'uliyatli vazifada faoliyat ko'rsatmoqdaman. Albatta, ma'rifatli oila jamiyatning baxti va farog'atidir. Ayni jihatlarini inobatga olib, tumanda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, "mahalla – oila – maktab" hamkorligini yaxshilash, har bir oilada yoshlar milliy qadriyat va an'analari asosida ulg'ayishga erishishni o'zimga ustuvor vazifa sifatida belgilab olganman.

Birgina o'tgan yilning o'zida tuman va mahallalarda tashkil etilgan Oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash komissiyasi hamda "Oqila ayollar" jamoatchilik tuzilmalari ko'magida 531 ta oilaning muammolari o'rganildi va ajrim yoqasiga kelib qolgan yoshlarning oilasi tiklandi. Natijada o'nlab farzandlar to'liq oilada tarbiya topishi uchun sharoit yaratildi.

O'tgan yili "ayollar daftari"ning beshinchi bosqichi doirasida tumanda 6,5 ming xotin-qizning bandligi ta'minlanib, asosiy va qo'shimcha yordamlar ko'rsatildi. Ezgu maqsadlar uchun 3 mlrd. 410 mln. so'm sarflandi. Joriy yilda ham mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlar izchil davom ettiriladi.

Bu yil xotin-qizlar bayrami menga va oilamga qo'shaloq xursandchilik olib keldi. Ayom arafasida davlatimiz rahbari Farmoniga ko'ra, "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Kamtarona faoliyatimning bunday yuksak e'tirof etilishi menga yanada g'ayrat-shijoat bag'ishladi. Bundan buyon ham yurt ravnaq-rivoji yo'lida xizmatda astoydil kamrabastaman.

SHIJOATLI, ISHBILARMON, OLIMA XOTIN-QIZLAR YUTUQLARI

Hozirgi kunda mamlakatimiz xotin-qizlari turli soha va tarmoqlarda Vatanimizning jadal taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bularni raqamlarda quyidagicha yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

Davlat boshqaruvi tizimida

– 2017-yilda boshqaruv sohasida xotin-qizlar o'rtacha 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozirda bu raqam 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi, Senat a'zolarining 27 foizi ayollardir.

Ilm-fan jabhasida

– Hozirgi vaqtda 6 ming 200 dan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib, ilmiy ishlanmalarning 25 foizini olimia ayollarimiz yaratayotir.

Sport yo'nalishida

– O'tgan yili Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida mamlakatimiz delegatsiyasi tarkibidagi ayol

sportchilardan 3 nafari oltin, 8 nafari kumush, 3 nafari bronza medalini qo'lga kiritdi.

Madaniyat va san'at sohasida

– 2024-yili madaniyat va san'at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda 25 nafar, mamlakat miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda esa 71 nafar iste'dodli qizlarimiz g'olib bo'ldi.

Tadbirkorlik tarmog'ida

– O'tgan yilning o'zida xotin-qizlar bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jab etish maqsadlariga 17 trillion so'm kredit ajratildi. Natijada ayol tadbirkorlarimiz 81 trillion so'mlik mahsulot yaratib, 450 million dollarlik eksportni amalga oshirdi.

Zamon bilan hamnafaslik saodati

Navbahor TURSUNOVA,

Jomboy tumanlararo iqtisodiy sudi raisi, "Sodiq xizmatlari uchun" medali sohibasi:

– Bugun jamiyatning hech bir sohasini xotin-qizlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sud tizimida ayollar sonining ko'payishi mazkur tuzilmada adolatning yanada mustahkamlanishini ta'minlamoqda. Chunki ayol nafaqat sudya, balki ona hamdir. Shu ma'noda, u odamlarni yaxshiroq tushunadi.

Bugungi kun ayoli jamiyatning qaysi bir tarmog'iga mansub bo'lishidan qat'i

nazar, zamon bilan hamnafas bo'lish uchun o'qib-izlanishi va bilim saviasini muntazam oshirib borishi kerak. Zotan, bilim, mehnat va qobiliyat har doim ham muhim. Vazifani vijdonan, sadoqat bilan bajargan kishi hurmat va e'tibordan chetda qolmaydi.

Joriy yilda davlatimiz rahbarining tegishli Farmoniga ko'ra, "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlandim. O'z navbatida, bu

menga yanada katta mas'uliyat yukladi. Zero, davlatimiz rahbari aytganidek, bugun har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki uning faol ishtirokchisi va tashabbuskori hisoblanadi. Bu esa bizdan doimiy ravishda malaka oshirishni, o'z bilimlarimizdan unumli foydalanib, jamiyat hayotida faol ishtirok etishni talab qiladi.

O'zimni imkoniyati cheklangan deb hisoblamayman

Mahiyo YO'LDOSHEVA,

hunarmand-tikuvchi, "Shuhrat" medali sohibasi:

– G'uzor tumanining Xumdon mahallasida yashayman. Taqdir taqozosi bilan 23 yoshimda xastalanib, yur olmay qoldim. Aslida, yosh bo'laturib bunday vaziyatga tushish juda og'ir. Dastlab tushkunlikka tushib qolgan vaqtlar ham bo'ldi. Shukrki, atrofidagi meni qo'llab-quvvatlashga tayyor yaqinlarim, yaxshi insonlar ko'magi bilan yoshlikda o'rgangan hunarim – tikuvchilikni yo'lga qo'ydim.

2019-yilda "Sho'rtangazkimyo" majmuasiga kasanachi bo'lib ishga o'tdim. Shu bilan birga, yoshlarga, ishsiz xotin-qizlarga tikuvchilik hunarini o'rgatishni yo'lga qo'ydim. Hozir yiliga 60 – 70 tagacha shogird tayyorlab, ularning ham kasb-korli bo'lishiga ko'maklashmoqdaman.

Ochig'i, bugun o'zimni imkoniyati cheklangan deb his etmayman. Bu haqda o'ylashga vaqtim ham yo'q – doimo jamiyatning qaynoq nuqtasidaman. Oldimda rejalarim, amalga oshirishim kerak bo'lgan ishlarim juda ko'p. Bayram arafasida berilgan "Shuhrat" medali yanada katta motivatsiya, kuch va shijoat bag'ishladi. Bu yuksak e'tiborni, qolaversa, shu lahzalarda qalbimda kechgan hissiyotlarni hech qanday so'z bilan ta'rif etib berolmayman. Kuchim, imkonim bor ekan, mehnatim bilan Prezidentimiz va xalqimizning ishonchini oqlashga va'da beraman.

Odamlar salomatligi – eng oliy maqsadim

Dildora ISMOILOVA,

Qo'shko'pir tumanidagi "Sherzodbek shifo klinikasi" bosh shifokori, "Sog'lom turmush" medali sohibasi:

– Dunyoda inson salomatligidan bebaho boylik yo'q. Keyingi yillarda mamlakatimizda "Tibbiyot inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifati keskin yaxshilandi.

Klinikamizda reanimatsiya, xirurgiya, ginekologiya, nevrologiya, ichki kasalliklar, stomatologiya, instrumental diagnostika va bolalar bo'limlari mavjud. Qirq nafardan ortiq xodimlar faoliyat olib boradi. Oxirgi yarim yilda klinikamizda 10 mingdan ziyod hamyurtlarimiz davolanib, salomatligini tikladi.

Bugungi kunda eng ilg'or tibbiy diagnostika hamda davolash uskunalarini xarid qilish, yangi

davolash uslublarini joriy etish maqsadida xorijlik hamkasblarimiz bilan doimiy muloqotda bo'lib, tajriba almashib boryapmiz. Klinika faoliyatini yanada kengaytirish bo'yicha yaqin istiqbolga mo'ljallangan rejalarimiz bor.

Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan davlatimizning yuksak mukofoti – "Sog'lom turmush" medali bilan taqdirlandim. Bu nafaqat men, balki barcha tibbiyot sohasi xodimlariga berilgan yana bir ulkan rag'bat, deb bilaman. Yuksak mukofot menga hamda butun jamoamizga juda katta mas'uliyat, shu bilan birga, yangicha shijoat va kuch-g'ayrat bag'ishladi.

Izlanganga sharoit bor

Fotima BOYEVA,

Parkent tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, "Shuhrat" medali sohibasi:

– "Ayollar daftari" mahalla tizimida amaliy islohotlarni boshlab, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ishsiz xotin-qizlar uchun najot vositasiga aylandi. Zotan, u orqali xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlar men kabi uy bekalarini tadbirkorga, ishbilarmon ayollarga aylantirdi.

2022-yili imtiyozli ravishda 29 million so'm kredit oldim. Mahalliy fermerlardan mayiz xarid qilib, navlar asosida qadoqlangan mahsulot sotuvini yo'lga qo'ydik. Izlanganga imkon, istaganga sharoit bor. Mehnatimiz ortidan bir necha yil davomida qaytarilishi lozim bo'lgan kreditni muddatidan oldin qaytardik. Sof daromad ham chakki emas.

Yaqinda yana kredit oldik. Namunali mijozga bank ham ishonar ekan, 50 million so'm miqdorida imtiyozli kredit naqd shaklda berildi. Natijada yana o'ndan ziyod ayollar

ishli bo'ldi. Ular o'z uylaridan chiqmay uzumni quritib, mayizni qadoqlab, har oyda 3-4 million so'm daromad topish imkoniga ega bo'ldi.

Daromadidan o'zimga qoladigani ham chakki emas: yiliga 100 million so'm. Shuning ortidan sharoitimizni yaxshiladik, to'ylar qilyapmiz, o'g'limni ham, kelinimni ham o'qityapmiz. Buning barchasi davlatimizda xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan cheksiz g'amxo'rlik tufayli.

Endilikda marrani yanada baland olib, ko'proq daromad olish, qo'shimcha yangi ish o'rinlari yaratish uchun harakat qilamiz. Zotan, buning uchun mamlakatimizda imkoniyat, sharoit, eng muhimi, e'tibor hamda rag'bat bor.

"Xalq so'zi".

E'TIBORDAGI MASALALAR QAMROVI KENG

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoyalash, ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati Farg'ona viloyati misolida o'rganildi va uning natijalari xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashi bilan qo'mitaning qo'shma yig'ilishida muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatining holati qo'mita tomonidan tuzilgan ishchi guruh ishtirokida

dastlabki tarzda ko'rib chiqildi. Muhokama natijasida ushbu masalaning dolzarb va keng qamrovli ekanligi inobatga olinib, hududlarga chiqqan holda kompleks tarzda o'rganish o'tkazilmoqda.

Mahalliy Kengashlar bilan ishlash yo'nalishida qo'mita tomonidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari a'zolarining ish faoliyatini samarali tashkil etish, ularning asosiy yo'nalishlari bo'yicha aniq rejalarini belgilash,

vakolatlari doirasida muhim masalalarni muhokama qilish va aniq natijalarga erishish, soha bo'yicha qonunchilikdagi yangiliklar, o'zgarishlar yuzasidan bilim va ko'nikmalarini oshirib borish bo'yicha 2 marotaba seminar o'tkazildi.

Keyingi paytlarda nodavlat ta'lim muassasalarida bolalarga nisbatan zo'rovonlik holatlari kuzatilayotganligi sababli Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo'rovonlik sabablarini izohlash va oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar

haqida ma'lumot berishni so'rab senator so'rovi yuborildi.

Qo'mita a'zolari doimiy ravishda xalq bilan muloqotda bo'lib, ularning murojaatlarini eshitib bormoqda.

Xususan, Jizzax viloyatining Baxmal tumanida aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yakuniga yetkazilmay qolganligi haqidagi masalaga Senatning 4-yalpi majlisida Iqtisodiyot va moliya vazirligi mas'ullarining e'tibori qaratildi. Bugungi kunda ushbu hududda ishlar boshlangan va uning ijrosi holati Senat nazoratiga olingan.

"Xalq so'zi".



JAMOATCHILIK NAZORATI INSTITUTLARI FAOLIYATI YANADA TAKOMILLASHADI

Bundan tashqari, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarga fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimida institutsional yaxlitlik ta'minlanishini, davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalariga ajratilgan byudjet mablag'larini boshqarish, shu jumladan, adolatli taqsimlash, maqsadli foydalanilishini nazorat qilishning yangi tartibi joriy etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

IJTIMOY HIMOYA MILLIY AGENTLIGIGA VAKOLATLAR BERILYAPTI

Qonunchilik palatasiga aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritildi.

Qonun loyihasi bilan ayrim notarial harakatlar haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligiga berilishi taklif etilmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ijtimoiy yordam va xizmatlardan foydalanish to'g'risidagi arizalardagi imzolari, agar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan haqiqiylik tekshirilgan bo'lsa, notarial shahodatlash talab etilmasligi nazarda tutilmoqda.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ariza beruvchilarning ularning roziligi asosida bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini axborot tizimi orqali elektron tarzda olishga va ishlov berishga haqli ekanligi belgilanmoqda.

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MANFAATLARI TA'MINLANADI

Qonunchilik palatasiga ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritildi.

Qonun loyihasida qurilish sohasida nazorat qiluvchi organ tomonidan shaharsozlik hujjatlari loyihalarda nogironligi bo'lgan shaxslarga sharoitlar yaratish bo'yicha ishlab chiqilgan loyihaga amal qilmagan holda qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektidan foydalanish uchun ruxsatnoma berganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, ijtimoiy inspeksiya xodimlari faoliyatiga to'sqinlik qilish, ularning qonuniy talablarini bajarmaslik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

HUQUQIY EKSPERIMENTNING QONUNIY ASOSLARI BELGILANMOQDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga "Huquqiy eksperiment to'g'risida"gi qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritildi.

Muayyan sohada eksperimental-huquqiy normalarni qo'llash, samaradorligini tahlil qilish hamda ularning natijasida yuzaga kelgan yo'l kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy oqibatlarni o'rganish va baholash orqali samarali huquqiy normalarni amaliyotga joriy etish loyihasining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Qonun loyihasida konstitutsiyaviylik, qonuniylik, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish hamda ularning ustuvorligi, jamoat osoyishtaligi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi hamda ularning ustuvorligi, oshkorlik, asoslanganlik va dolzarblilik huquqiy eksperimentning asosiy prinsiplari sifatida belgilanmoqda.

Shu bilan birga, huquqiy eksperiment o'tkazish shakllari va usullari, uning tashkil etish va o'tkazish tamoyillari (shartlari), huquqiy eksperiment natijalarini baholash tartibi va natijalarni rasmiylashtirish bo'yicha talablar nazarda tutilyapti.

"Xalq so'zi".

Aks sado

Korrupsiyaga murossasiz yosh avlodni tarbiyalash — ustuvor vazifa

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Shu bois korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

5-mart kuni davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish borasida qilingan ishlar haqida baholalar berilib, kelgusi vazifalar aniq belgilandi. Yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha chora-tadbirlar muhokama etildi. Korrupsiya islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov ekani alohida ta'kidlandi.

Yig'ilishda, eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashning sifat va son jihatidan mutlaqo yangi darajaga ko'tarilishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi mahsuli ekanligini chuqur his qildim. Jumladan, davlat rahbarining jamiyatni "halollik vaksinasi" bilan "emlash" zarurati, ushbu illatga murossasiz kayfiyatni yaratish, ong o'zgarishi haqidagi fikrlari bu boradagi ishlarga qo'yilgan tamal toshi bo'ldi, desak, aslo mubolag'a emas.

Yig'ilishda korrupsiyaga toqatsiz yosh avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa sifatida e'tibor berildi. Bolalikdan "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish o'ldan, mahalladan boshlanishi lozim. O'zbeklarda o'ldan muloqot qilish eng samarali profilaktika hisoblangan, o'z samarasini bergan. Ota oila boshlig'i sifatida kamolga yetkazayotgan farzandlariga korrupsiyaning mohiyatini hayotiy misollar bilan tushuntirib berishi, shaxsiy namuna ko'rsatishi lozim. Zero, farzand har vaqt o'ldan, ota-onadan, mahalladan ibrat oladi va shunga intiladi. Jamiyatda oilaning roli tobora oshib borayotgan bir vaqtda, dunyo ham oilaning tarbiyaviy o'rni naqadar muhim ekanligini anglab turgan zamonada ham biz o'zimizning milliy qadriyatlarimizga yo'g'rilgan ta'lim va tarbiyaga alohida ahamiyat qaratishimiz lozim.

Bu borada davlatimiz rahbari korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlarga asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to'sqinlik qiladigan xatarli tahdid ekanini aytib, yoshlarni ushbu illatga qarshi kurashda asosiy drayver bo'lishi lozimligiga urg'u berdi.

Jamiyatda ustuvor soha — ta'lim tizimida tahsil oladigan o'smirlar, yoshlar ongida tolerantlikni uyg'otish muammosi oldimdiza turibdi. "Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi", degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgan eng katta kamchiligidir. Bu borada o'nglanish, siljish qilmasak, millatimiz obro'siga korrupsiya illati soya solib turaveradi. Toki biz o'ldan, bog'chada, maktabda o'g'il-qizlarimiz ongiga, ruhياتiga tamagirik, poraxo'rlik yomon illatiga emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligini singdirmasak, ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erishishimiz qiyin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda yoshlar ta'lim olayotgan muassasaning ahamiyati katta. Davlatimiz rahbari yig'ilishda "Bundan 7-8 yil avval oliyog'hlarga o'qishga kirishda tanish-bilishchilik avj olgan edi. Soha raqamlashdi, imtihonlar onlayn translyatsiya bo'lyapti. Avval test topshirib, to'plagan baliga qarab, keyin oliyog'hlarni tanlash tizimi joriy qilindi. Oliy ta'limda 35 turdagi hujjatlarini inson omilisiz olishga o'tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 baravar kamaydi", deya kuzatish bilan oliy ta'limdagi korrupsiyani eslatdi. Darhaqiqat, ta'lim tizimini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirishga juda katta e'tibor qaratilganining samarasini bugun hayotimizda his qilib turibmiz. Jumladan, avvallari oliy ta'limga kirish, o'qish, hattoki, biron ta'lim amaliyotiga yuborishda ham maishiy korrupsiyaning sasi kelib turardi. Abituriyentning oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirishdan tortib imtihonlargacha, hattoki, reyting daftarchalari ham barchasi raqamlashtirilishi natijasida inson omiliga o'rinish qolmadi. Buning natijasida oliy ta'limga bo'lgan ishonch oshdi.

Diqqat qilsak, jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi darajali vazifa sifatida belgilanishi bejiz emas. Ta'lim, mamlakatning kelgusi ravnaqi uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Inson resurslari, ya'ni bilim va malakali kadrlar, har qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida rektorlarni talaba va yoshlarning korrupsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yishi zarurligiga alohida ahamiyat qaratishga chaqirdi.

Barchamizga ma'lumki, yangilanayotgan O'zbekistonda turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar jahon hamjamiyati nigohida yuksak baholanmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va kadrlar tayyorlash borasida milliy modelning yaratilgani xalqaro miqyosda tobora e'tirof etilyapti. Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimining islohotlar doirasida o'qitish sifati va mazmunini xalqaro talablar asosida takomillashtirish, oliyog'hlarning yetakchi xalqaro reytinglarga kirishini ta'minlash, ta'lim jarayoniga xorijlik mutaxassislarini keng jalb qilish, mutaxassislik fanlari

bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalarini amaliyot bilan uyg'un tarzda egallashiga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish kabi vazifalar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Aslida ham ta'lim sohasidagi yutuqlar, mamlakatning global miqyosdagi raqobatdoshligini oshiradi. Bilimli avlod innovatsiyalarni yaratish va texnologiyalarni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilayotir. Sun'iy intellekt hayotimizga kirib kelishi, bu esa o'z-o'zidan korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yo'llarini izlashga bizni undaydi, albatta. Bu jarayonlarda esa yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ularda tahsil olayotgan ming-minglab talabalarning o'rni katta. Talaba va yoshlarning korrupsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash esa kutilgandek samara berishi aniq. Sababi yoshlarning ongu shuurida aynan korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llari, mazkur illatning zararli oqibatlari haqida to'liq tasavvur hosil bo'ladi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi kurashning yangi yaxlit tizimini tushuntirib berdi, haftalik, oylik, choraklik, yillik ishlar aniq belgilab olindi. Bunda parlament, ijro va sud organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, ilmiy va ta'lim muassasalarining aniq vazifalari mustahkamlab qo'yildi.

Albatta, biz, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari ham ushbu vazifalarga o'ta jiddiy yondashib, tengdoshlarimiz ongiga va qalbiga "halollik vaksinasi" tarqatishda, bu jirkanch illatga nisbatan murossasiz kayfiyatni shakllantirishda, shuningdek, hududlarda deputatlar bilan birgalikda korrupsiyani keltirib chiqaradigan omillarni aniqlashimiz, ularga barham berish, buning uchun qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tinimsiz qat'iy ishlashimiz zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati ushbu illatga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, inson huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolati ta'minlash, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydonidagi obro'-e'tiborini oshirish kabi ezgu maqsadlarga asos bo'ladi. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashni umummilliy vazifa sifatida vijdon ishiga aylantirsaq, yoshlarning halollik, shaffoflikka ongu shuurini safarbar etsak, korrupsiyaning ildiziga suv beradigan befarqlikni bartaraf eta olsakna ushbu illatni tag-tomir bilan qo'porib tashlashimiz mumkin.

Otabek SOBITOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi.



HAR BIR FUQARO ZIMMASIDAGI BURCH

Keyingi paytlarda bu illatning yangi-yangi turlari namoyon bo'lmoqda. Ig'or texnologiyalarning hayotga tatbiq etilishi taraqqiyot uchun samarali bo'lsa-da, ayrim hollarda bu narsa korrupsiyaning yangi bir ko'rinishi — kiberkorrupsiyaning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Shu sababli Senatda kiberkorrupsiyaga qarshi kurashishni huquqiy asoslar bilan mustahkamlash, xalqaro tajribani o'rganish va parlament nazoratini kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

Unda korrupsiyaga qarshi kurashishda nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning ahamiyati qayd etildi. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro konvensiya talablarini monitoring qilish jarayoniga nodavlat tashkilotlarni keng jalb etish orqali bu jarayonda samaradorlikka erishish mumkinligi ta'kidlandi. Shuningdek, fuqarolar uchun

qulay shart-sharoitlar yaratish orqali korrupsiyaning oldini olish mexanizmlarini rivojlantirish vazifasi ham belgilandi. Masalan, aholi gaz, suv, elektr, subsidiyalari, pensiya va boshqa ijtimoiy masalalarda idoramodora yurmasdan, onlayn tarzda murojaat qilish va tezkor javob olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa byurokratik to'siqlarni kamaytirish bilan birga, korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikka ham xizmat qiladi.

Yig'ilish yakunida korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat davlat organlari, balki har bir fuqaro zimmasidagi burch ekanini qayd etildi. Jamiyatda huquqiy ongni oshirish, shaffoflikni ta'minlash va parlament nazoratini kuchaytirish orqaligina mazkur illatga barham berish mumkin. Bu esa barcha davlat idoralari, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlaridan hamjihatlikda harakat qilishni taqozo etadi.

Bahrom ABDULLAYEV, Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi.

SOG'LOM MUHIT YARATISH YO'LIDA

Korrupsiya har qanday jamiyatning taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi illatlardan biri bo'lib, u iqtisodiy o'sishga, davlat boshqaruvining samaradorligi va fuqarolarning davlat institutlariga ishonchiga putur yetkazadi. Shu bois yurtimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda aynan shu masala — korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalar batafsil muhokama qilindi.

Yig'ilishda korrupsiyaga eng ko'p moyil sohalardan biri — yirik investitsiya loyihalari ekanini qayd etildi va bunday loyihalarni amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarga tatbiq qilish, shuningdek, auksion shartlarini raqobatbardoshlik ekspertizasidan o'tkazish zarurligi ta'kidlandi.

Yangi tartibga muvofiq, "Shaffof qurilish" platformasi nafaqat mahalliy, balki xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni uchun ham joriy etiladi. Dastlab bu tizim subpudratchilarni jalb qilish va investitsiya hajmi 1 million dollargacha bo'lgan

loyihalarga tatbiq etiladi. Shu tariqa yirik qurilish va investitsiya loyihalarida manfaatlar to'qnashuvi hamda korrupsion kelishuvlarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Bu jarayonda biz, mahalliy Kengash vakillari ushbu islohotlarning ijrosini nazorat qilish, joylarda aholi bilan muloqot o'tkazib, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borishimiz shart. Ana shundagina Prezidentimiz tomonidan barchaning oldiga qo'yilgan bunday mas'uliyatli vazifani uddalash mumkin. Faqat davlat idoralari emas, balki keng jamoatchilik ham ushbu jarayonda faol ishtirok etsa, mamlakatimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish mumkin bo'ladi.

Parda SHUKUROV, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi raisi.

QURILISH MAYDONLARIDA HAVO MUSAFFOLIGI TALABLARIGA RIOYA QILINADI

Ta'kidlash joizki, amaldagi qonunchilikda atmosfera havosini muhofaza qilish talablari va shaharsozlik qoidalarini doirasida aynan qurilishda chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishiga yo'l qo'yg'anlik uchun aniq javobgarlik nazarda tutilmagan.

Prezidentimiz tomonidan shu yil 3-mart kuni imzolangan "Qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablar belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish haqida"gi Qonun yuqoridagi muammolarning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ahamiyatlidir.

Ushbu Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga

rioya etmaganlik uchun javobgarlikni belgilovchi qo'shimchalar va o'zgartirish kiritildi.

Ya'ni, o'Ichami besh yuz kvadrat metr va undan ortiq bo'lgan qurilish maydonida, unga tutash bo'lgan hududda hamda undan chiqish yo'llarida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablarni buzish yoxud ushbu hududlarda ifloslantiruvchi moddalarning yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlardan ortiq darajada atmosfera havosiga chiqarilishiga yo'l qo'yish mansabdor shaxslarga BHMning 10 baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi o'tlanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilsa, mansabdor shaxslar BHMning 50 baravari miqdorida jarimaga tortiladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, huquqbuzarliklarni aniqlash qat'iy belgilangan

tartib asosida amalga oshiriladi. Bunda, qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishi lokal ta'sir ko'rsatishi holati hisoblanib, Davlat ekologik nazorati inspeksiya sinning mas'ul xodimlari tomonidan yuqori sezuvchanlikka ega bo'lgan maxsus laboratoriya uskunalarini va vositalarini bilan joyiga chiqqan holda o'rganiladi va atmosfera havosidan namunalar olinadi.

Tahlil yuqori sezuvchanlikka ega bo'lgan "EKOLAB" rusumli ko'p komponentli gazoanalizator, termomanomet, "testo 425" rusumidagi analizatorlar yordamida amalga oshiriladi. Natijalar belgilangan me'yorlar bilan solishtirilgan holda aniqlanadi.

Agar bir hududda bir nechta yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan qurilishlar olib borilayotgan bo'lsa, huquqbuzarlik ularning joylashuvi va shamol yo'nalishi hisobga olingan holda aniqlanadi.

Yana bir muhim jihati, nazorat tadbirlarida qurilish jarayonida dastlab yuk avtotransportlarining kirib chiqishi, ko'z bilan ilg'ash mumkin bo'lgan darajada chang havoga ko'tarilayotganligi, chang bostirish uchun osma suv sepgichlari o'rnatilganligi va ularning ishlayotganligi, shamol ta'sirida havoga ko'tarilishi mumkin bo'lgan qurilish mahsulotlari yoki qurilish chiqindilarining ochiq holda saqlanayotganligiga e'tibor beriladi.

Uman, qonunda belgilangan normalar fuqarolarning o'z hayoti va sog'lig'i uchun qulay atmosfera havosidan foydalanish huquqlarini ta'minlashga, chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf qilishga, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qonun buzilishi holatlarining oldini olish va ularning shaxsiy javobgarligi hamda mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bekmirza ESHMIRZAYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

BUXORO VILOYATI TAJRIBASI:

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM QADAM

Sifatli ta'lim - mamlakat va insoniyat kelajagini belgilovchi asosiy kuch. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu tizim kuchli bo'lgan jamiyatlarda innovatsiya, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi.

ta'lim va tarbiyasi, deb javob beraman, degan iqrorarlaridan ham tegishli xulosa chiqarishimiz zarur. Ulug' mutafakkir va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi, deb bejiz ta'kidlamagan.

uchrashuvlarda qatnashish, mashhur kutubxonalarga tashrif buyurish, xalqning o'lmas qadriyatlarini odatlari, turmush tarzi bilan yaqindan tanishish, yangi ilm va ko'nikmalarga ega bo'lish, paromlarda sayohat qilish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

muassasalari hamkorligida mamlakat miqyosida yagona tizimli yondashuv ishlab chiqish, nodavlat tashkilotlar, xususiy sektor va xalqaro ta'lim institutlarini ham jalb qilish talab etiladi.

Tashabbus

"Prokuror sovrini"

olimpiadasi ommalashdi

Buxoro viloyati prokuraturasi, Xalqaro Nordik universiteti va "IDC" ta'lim markazi professor-olimlari hamkorligida umumta'lim maktablarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida qator tashabbuslar, pilot loyihalar ishlab chiqilayotgani va hayotga tatbiq etilayotgani bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.



Yaponiya intizom va axloqiy tarbiyaga katta urg'u beriluvchi, ilm-fan va texnologiyaga asoslangan o'quv dasturlariga ega. Germaniyaning dual ta'lim imkoniyatlari keng. Niderlandiyada moslashuvchan, barcha bolalar uchun sifatli boshlang'ich ta'lim tizimi mavjud.

Fidoyilar - ehtiromda

Joriy yilning 22-fevral kuni ikkinchi bor "Prokuror sovrini" olimpiadasi yuqori saviyada o'tkazildi. Bu galgi musobaqada nafaqat matematika fani, balki fizika fani ustozlari ham qamrab olindi.

Bellashuvda Buxoro viloyatidagi 13 ta shahar-tuman maktablarining matematika va fizika fani muallimlari (2372 nafar) o'z bilim hamda ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdi. Birinchi bosqichda yuqori natijalarni ko'ngan qatnashuvchilarni, 98 nafar o'quvchilarni ikkinchi bosqichda bellashdi.

Olimpiada Buxoro viloyatida ta'lim sifati va samaradorligini yanada yuksaltirish, o'quvchilarga puxta matematik bilimlar berib, respublika va xalqaro miqyosda nufuzli musobaqalarda muvaffaqiyat qozonishlariga zamin yaratib berayotgan malakali ustozlarni aniqlash maqsadida har yili an'anaviy tarzda o'tkazilib boriladi.

Barqaror hayot asosi

Ta'limning taraqqiyotga ta'siri borasidagi asosiy jihatlarga nazar tashlaylik. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi malakali ishchi kuchini tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Asosiy, ta'lim insonlarning huquqiy ongini yuksaltirib, demokratik jamiyat qurilishiga xizmat qiladi. Yuqori bilim darajasiga ega jamiyatda korruptsiya holati uchramaydi, davlat boshqaruvi samarali bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan "Prokuror sovrini" olimpiadasi o'tkazish bo'yicha Buxoro viloyati tajribasini respublikaning barcha hududida ommalashtirishning qator afzalliklari va yo'llari bor.

Sherzod MUSTAFOQULOV, Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor.

YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

"O'zbekiston - Fransiya" birinchi tibbiyot forumi

Parij shahri munosabatlari yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan birinchi anjuman - "O'zbekiston - Fransiya" birinchi tibbiyot forumiga mezbonlik qiladi.



SSV matbuot xizmati xabariga ko'ra ushbu nufuzli tadbirda ikki davlat sog'liqni saqlash vazirliklari, yirik tibbiyot markazlari, klinikalari, shifoxonalari va oliy o'quv yurtlari rahbarlari, farmatsevtikaga ixtisoslashtirilgan yetakchi kompaniyalar mas'ullari qatnashdi.

Forum O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasida Fransiya yutuqlarini o'rganish va ommalashtirish, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va samarali davolashda ilg'or tibbiy texnologiyalar hamda raqamli yechimlarni joriy qilish masalalarini yuzasidan tajriba almashish imkonini berdi.

Anjuman doirasida onkologiya, shoshilinch tibbiy yordam, mutaxassislar malakasini oshirish kabi yo'nalishlarda panel muhokamalari va "B2B" muzokaralari o'tkazildi.

Arxeologlar uchun zarur qurilma

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutiga zamonaviy yangi "SEM" (Scanning Electron Microscop. Joel 5100) qurilmasi keltirildi.

Mazkur mikroskop yuqori aniqlikka ega bo'lib, namunalarni 3 anometrgacha kattalashtirib o'rganish imkonini beradi. Arxeologik ashyolar tahliliida, ya'ni qadimgi metall buyumlarning (qurollar, tangalar, zarqarlik buyumlari) korroziya va degradatsiyasini tekshiradi.



Shu bilan birga, kulolchilik ishlab chiqarish texnikasini aniqlash uchun sirt teksturasini hamda xomashyo manbalarini va mineral qo'shimchalarni, o'z navbatida, suyak hamda tishlarni tahlil qilish, skelet qoldiqlarida diagenetik o'zgarishlarni (o'limdan keyingi o'zgarishlar) aniqlab beradi.

Hamyurtimiz xalqaro notiqlik tanlovi g'olibi

Yaponiyaning Tokio shahrida 22-martaba chet elliklar o'rtasida Xalqaro yapon tili notiqlik san'ati tanlovi bo'lib o'tdi.



Ushbu nufuzli tadbirda O'zbekiston, Kanada, Vyetnam, Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Nepal, Tayvan jami o'n nafar ishtirokchisi qatnashdi.

Quvonarli shundaki, tanlovda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2-bosqich talabasi Hasan Ma'murjonov faxrlil 1-o'rinni egallab, g'olib bo'ldi. Hozirgi kunda u akademik mobillik dasturi doirasida Yaponiyaning Toyo universitetida tahsil olmoqda.

Ma'lumot uchun, O'zDJTU hamda Toyo universiteti o'rtasida tuzilgan shartnoma doirasida har yili O'zDJTuning uch nafar talabasi akademik mobillik dasturi asosida Yaponiyaga o'qishga yuboriladi.

"Xalq so'zi".

Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi tibbiyot fanlari nomzodi, professor, universitet boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi

Yaxshinor ALLAYAROVning

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

Qalb gavhari, ko'zlarning nuri

Ayol - mehr-muhabbat bulog'i, baxt-saodat qasri, vafu-sadoqat timsoli. Oilada ota qo'rg'on sanalsa, uning davomiyligini ta'minlovchi, ko'rkiga-ko'rk beruvchi aynan ayol, ya'ni ona, munis opra-singillarimiz hisoblanadi.

O'zbekistonda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi faolligi hamda turmush darajasini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu boradagi amaliy ishlarni nafaqat vatandoshlarimiz, balki xorijliklar ham e'tirof etmoqda.

Ayollarni e'zozlash bo'yicha yurtimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar yuzasidan qardoshlarimiz ham o'z mulohazalarini, dil so'zlarini yo'llashdi.

Dunyo nigohi

Anar AHMADOV, "Askar" gazetasi muharriri (Ozarbayjon): - Insoniyat yarialibidiki, ayolga ehtirom ko'rsatadi, sharaflaydi, betakror jumalarda madh etadi. Xo'sh, nega? Chunki aynan u biz - erkaklarning tolmaz qanotimiz, dunyoning tugalligi, hayotning davomiyligi, borliqning nafosatini ta'minlab turadi. U bir vaqtning o'zida bizga baxt, tuganmas mehr va otashin muhabbat berishga ham qodir. Ana endi ayting, uni ardoqlamay bo'ladimi?



Ayol va kelajak so'zleri bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Sababkim, u kelajak avlodning barkamol uhdada voyaga yetishida salohiyatli murabbiy, jonkuyar ustoz hisoblanadi. Shu ma'noda, "ayolni asragan elning tolesi baland va charog'on bo'ladi", degan so'z bejiz aytilmagan.

Qardosh O'zbekistonda ayol-qizlarga e'tibor naqadar yuksakligini eshitib juda xursand

Burju YILMAZ, Istanbul universiteti doktoranti (Turkiya):

- Ayol munavvar osmonning yorug' yulduzi; u go'yo samoda oyni qo'lida tutib olmani charog'on etadigan, oftonni uyg'otib butun borliqqa hayot bag'ishlaydigan Zuhro yulduziga o'xshaydi. U muazzam bir gulshan aro yaratilganki, shu bois hamisha gullarga qiyos etiladi. Ayol mehridan ko'ngillar yashnaydi, muhabbatidan ozurda qalblar masrurlik tuyadi.

Tan olish kerak, ayol bo'lish bir vaqtning o'zida ham sharafli, ham mashaqqatli ish. Chunki uy ishlari, bola tarbiyasi, oilaning kamini yopish, ro'zg'or tashvishlari ham uning

zimmasida. Ayolning ba'zan o'nta qo'li bormi, deb o'ylab qolaman. Keyin ramziy ma'noda bor deyman o'zimga o'zim, agar bunday bo'lmaganda u shuncha ishga ulgurilmagan bo'lardi-da.



"Qudratli ayol" degan kalom yuradi tilimizda. Xo'sh, bu ojiza va nozik xilqatning qudrati nimada? Albatta, so'lmas mehru muhabbatida. Axir, dunyoda bundan kuchliroq narsa yo'q-ku, to'g'ri emasmi?

Unutmastik joizki, ayolni e'zozlash - bugun va kelajakni, jamiyat va millatni e'zozlash, degani. O'zbekistonda olib borilayotgan ezgu va xayrli ishlar zamirida xotin-qizlarga ulkan e'tibor va g'amxo'rlik borligini sezish qiyin emas. Chunki o'zbekistonlik qay bir dugonam bilan gaplashmay, uning quvnoq so'zlariga chaqnagan ko'zlari barini aytib turadi, ya'ni uning hayoti, taqdiri va bugunidan roziligi yaqqol seziladi.

Ilohim, o'zbek ayollarining go'zal taqdiri, yorug' baxti, shodon kulgisiga ko'z tegmasin!

Rahmatjon BOBOJONOV ("Xalq so'zi") yozib oldi.

Mamlakatimizda "Yoshlik bahori" respublika yosh opera ijrochilari festivali bo'lib o'tadi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksaldirish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mullifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahriyrga kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir N. Ostunov. Musahhif S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Topshirildi - 23.50 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi